



<https://doi.org/10.70728/b.series.fil.v08.i06.013>

XALQ DOSTONLARIDA IJTIMOIIY LEKSIKANING SEMANTIK- PRAGMATIK XOSLANISHI

Xolmuradova Jamila Irmetovna
filologiya fanlari nomodi, dotsent
Toshkent amaliy fanlar universiteti
jamilaxalmuratova66@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek xalq dostonlari tilida ijtimoiy qatlam, ijtimoiy rollar, qarindoshlik munosabatlari, urf-odat va marosimlarga oid leksik birliklarning lingvokulturologik hamda sotsiopragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Dostonlarda qo‘llangan ijtimoiy leksika xalqning tarixiy xotirasi, ma’naviy qadriyatlari, ijtimoiy tuzilishi va madaniy an’analarini aks ettiruvchi muhim til birliklari sifatida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek xalq dostonlari, ijtimoiy leksika, ijtimoiy rol, lingvokulturologiya, sotsiopragmatika, urf-odatlar, marosimlar, qarindoshlik munosabatlari, etnomadaniy birliklar, milliy qadriyatlar.

Аннотация: В статье анализируются лингвокультурологические и социопрагматические особенности лексических единиц, связанных с социальными слоями, социальными ролями, родственными отношениями, обычаями и обрядами в языке узбекских народных дастанов. Социальная лексика рассматривается как важное средство отражения исторической памяти народа, его духовных ценностей, социальной структуры и культурных традиций.

Ключевые слова: узбекские народные дастаны, социальная лексика, социальная роль, лингвокультурология, социопрагматика, обычаи, обряды, родственные отношения, этнокультурные единицы, национальные ценности.

Abstract: The article examines the linguocultural and sociopragmatic features of lexical units related to social strata, social roles, kinship relations, customs, and rituals in the language of Uzbek folk epics. Social vocabulary is analyzed as an important linguistic means reflecting the historical memory, spiritual values, social structure, and cultural traditions of the people.

Keywords: Uzbek folk epics, social vocabulary, social role, linguoculturology, sociopragmatics, customs, rituals, kinship relations, ethnocultural units, national values.

KIRISH. O‘zbek xalq dostonlari tilida jamiyatning tarixiy tarkibi, ijtimoiy qatlamlarning o‘zaro munosabati, turmush tarziga xos rollar va funksiyalar eng avvalo leksik qatlamda yorqin aks etadi. Dostonlarning o‘ziga xos badiiy-diskursiv tabiatini belgilovchi unsurlardan biri ham ana shu ijtimoiy qatlamga oid atamalarning muntazam takrorlanishi, poetik tizimda barqaror ishlatilishidir. Chunki dostonlar nafaqat badiiy matn, balki xalqning ijtimoiy xotirasi, ma’naviy tajribasi, tarixiy dunyoqarashining til orqali kodlangan shaklidir. Leksik birliklarning bu turkumida har bir so‘z ma’lum bir ijtimoiy vazifani bildiradi, ma’lum bir guruhga mansublikni belgilaydi, shaxsning jamiyatdagi o‘rnini ko‘rsatadi. Shu bois ijtimoiy qatlamga oid leksika dostonlarda mazmunni shakllantiruvchi asosiy semantik maydonlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. “Dostonlarda qo‘llanilgan leksik birliklar faqat obraz yaratish vositasi bo‘lib qolmay, balki jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, qatlamlararo munosabatlari va shaxsning ijtimoiy mavqeini ifodalovchi muhim semantik ko‘rsatkich sifatida namoyon bo‘ladi”⁶.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR. Dostonlarda *xalq, el, yurt, qabila, urug‘, avlod, bek, xon, shoh, navkar, qul, bakovul, biy, botir, bahodir, sarbador* kabi birliklar jamiyat tuzilishining asriy an’anaviy iyerarxiyasini belgilab beradi. Bu leksik birliklar ijtimoiy-estetik konsepsiya sifatida ham xizmat qiladi. Masalan, “*botir*” leksemasi oddiy jasur kishini emas, balki aniq rolli obrazni bildiradi: u jamiyat oldidagi burchini ado qiluvchi, el manfaatini himoya qiluvchi, sharafni ustun qo‘yuvchi yigit timsolidir⁷. Shunga o‘xshash tarzda, “*bek*”, “*xoqon*”, “*xon*” kabi unvonlar ijtimoiy pog‘onaning yuqori qatlamini belgilab, hokimiyat, mulk, hukmronlik, majburiy bo‘ysunish munosabatlarini til orqali mustahkamlaydi. Doston matnidagi bu birliklarning ishlatilish qonuniyatlari jamiyatdagi tabiat umumiy konsepsiyasini – iyerarxik tartib, boshqaruv, sodiqlik, fuqarolik burchi kabi mazmunlarni ifodalaydi.

Ijtimoiy rolga oid leksika dostonlarda juda keng: “*ona*”, “*ota*”, “*aka*”, “*opa*”, “*ukalar*”, “*do‘st*”, “*yor*”, “*soqi*”, “*pir*”, “*ustoz*”, “*shogird*” kabi so‘zlar ham faqat biografik munosabatni emas, balki dostonning mental tasavvurlariga xos sotsial vazifalarni bildiradi. Masalan, “*ona*” so‘zi faqat biologik rol emas, balki ruhiy madad, muqaddas poydevor, duogo‘y timsol sifatida ham ishlatiladi; “*aka*” esa himoyachi, tayanch rolida keladi. “*Ondin so‘gra Guljamila chohga qarab, Hamroga akam bormi, deb zor-zor chun abri navbahor yig‘lab bu so‘zni aytdi:*

Hasratingda ko‘zda yoshim sel bo‘ldi,

Kuya-kuya tanda jonim kul bo‘ldi,

Qora ko‘zing, shaxlo chashming ko‘r bo‘ldi,

*Hamro akam, mehribonim bormisan?*⁸”

6 Мирзаев Турсунали. Ўзбек халқ дostonлари поэтикаси. Монография. Тошкент: Ўқитувчи, 1993.

7 Пропп В. Я. Исторические корни волшебной сказки. Москва, 2023.

8 Хоразм дostonлари. Ошиқнома. 1-китоб. Урганч, 2006. – Б.122-123

Ko‘rinadiki, dostonlar tilidagi har bir ijtimoiy rol jamiyatning qadriyatlar tizimini ifodalovchi semantik o‘zak sifatida namoyon bo‘ladi.

Doston tilida tabaqalanish ko‘proq ikki yirik ko‘lamda namoyon bo‘ladi:

- 1) siyosiy-hokimiyat tuzilishga oid ijtimoiy qatlam;
- 2) tarbiyaviy-maishiy tizimga oid ijtimoiy rollar.

Siyosiy tuzilishga oid leksik qatlam o‘zida markazlashgan hokimiyat, davlat idoralari, harbiy tizim, mulkiy tengsizlik, shuningdek, boshqaruv an‘analari kabi elementlarni mujassamlashtiradi. Masalan, “saroy”, “sardor”, “elchi”, “qorovul”, “sipoh”, “navkar”, “qo‘shin”, “lashkar” kabi birliklar hokimiyat tuzilishning butun tizimini ko‘rsatadi. Bu so‘zlar orqali o‘quvchiga tarixiy-jamoaviy hayotning tashkiliy modeli yoritiladi. Dostonlardagi harbiy unvonlar esa jamiyatning kuch asosidagi tuzilishini, himoya va xavfsizlik tizimini, kollektiv birdamlik prinsiplarini aks ettiradi⁹.

Ikkinchi turkum – tarbiyaviy-maishiy rollar esa xalqning turmush madaniyatini, oila va jamoa ichidagi munosabatlarni, odob-axloq me‘yorlarini, shaxsning jamiyatda tutgan o‘rnini ko‘rsatadi. “Ota” – mehnat va mas‘uliyat timsoli; “ona” – tarbiya va poklik; “yigit” – mardlik, balog‘at; “qiz” – izzat, nazokat; “pir” – ruhiy etakchi; “ustoz” – bilim va tajriba manbai; “shogird” – bilimni qabul qiluvchi ijtimoiy rolning markazi. Bu leksik birliklar dostonlar tilida ko‘pincha majoziy kengayishlar bilan birga keladi: masalan, “ustoz” nafaqat kasb o‘rgatuvchi, balki hayotiy yo‘l ko‘rsatuvchi dono kishi sifatida talqin qilinadi. “Ustoz bo‘lsa, aslzoda bo‘lsa¹⁰”, “Kengash bilan ustozingdan so‘rab ol¹¹” kabi misollar uchraydi.

Dostonlarda ijtimoiy rolni belgilovchi leksika ko‘p hollarda obrazning vazifasini oldindan belgilab qo‘yadi: masalan, “bahodir” deyilishi bilan u jangchi, himoyachi, hal qiluvchi kuch ekanligi darrov ayon bo‘ladi; “sarbador” leksemasi o‘z jonidan kechib, el uchun kurashishga tayyor kishini anglatadi; “elchi” – diplomatik vositachi; “pir” – ruhiy murabbiy, ma‘naviy boshliq, duo bilan yo‘l ochuvchi; “parvonachi” – saroy xizmatkori, ijtimoiy pog‘onadagi o‘rta qatlam vakili. Bu birliklar o‘zaro mustahkam semantik tarmoqqa ega bo‘lib, doston matnining ichki rol tizimi aynan shu leksik birliklar orqali shakllanadi.

E’tiborlisi, dostonlarda ijtimoiy leksika ko‘pincha ideallashtirilgan qiyofa bilan birga keladi. Masalan, “botir” ideal mardlik timsoli; “bek” – dono va adolatli hokim; “ona” – mehr va duo manbai; “do‘st” – sodiq yo‘ldosh sifatida gavdalanadi. Bu ideallashtirilgan obrazlar orqali xalq o‘zining sotsial orzulari, umumiy axloqiy modeli, jamiyat ideali haqida tasavvur beradi. Shu jihatdan bu leksik qatlam nafaqat tasviriy vosita, balki xalqning ijtimoiy arxetiplari kodlangan tilda ifodasidir¹². Masalan, “Botirlarim qilich urar”; “Og‘a beklar, eshitinglar

9 Путилов Б.Н. Героический эпос и действительность. Л.: Наука, 1988. С. 329.

10 Хоразм дostonлари. Ошикнома. I-китоб. Урганч, 2006. – Б.155

11 Хоразм дostonлари. Ошикнома. I-китоб. Урганч, 2006. – Б.180

12 Саримсоқов Б. Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. Тошкент, 2006

zorimni”; “Safar mahram derlar zotim, Asli beklardan avlodim”; “Yunus parizod onamdur, Unda aql-u idrok jamdur”; “Do ‘stni injiltirma ko ‘nglidur shisha”; “Mard yigit yo ‘qotmas do ‘stni¹³” kabi misralar dostonlarda ko‘p uchraydi.

Dostonlarda ijtimoiy qatlamga mansub leksikaning yana bir xususiyati – u qadimiy va tarixiy-madaniy kontekstga chuqur bog‘langanidir. Antroponimlar ham ijtimoiy, madaniy rolni shaxs nomi orqali beruvchi vositalardir. Bunday ismlarda jamiyatning qadriyatlarga va diniy qarashlarga bo‘lgan munosabati tashqi shakl va ichki ma‘no orqali ko‘rinadi. Masalan, Xorazm dostonlarida “Go‘ro‘g‘li”, “Qoraxon”, “Sardor”, “Hamro”, “Sayodxon”, “Safar”, “Salbiniyoz”, “Asadlixon”, “Mamatxon”, “Mamatso‘yin”, “Shohrux”, “Tulimxo‘ja”, “Tukli”, “To‘kashoh”, “Rahmberdijon”, “Navbahorbibi”, “Parizod”, “Hurliqo”, “Aqljon” kabi ismlar uchraydi. Ismlar ham semantik ma‘noga ega. “Xorazm dostonlaridagi Bibijon, Bibizahro, Bibiniyoz, Bibi Oysha, Bibi Xadicha va boshqa nomlar tarkibida keng qo‘llanilgan. Ayrim nomlar tarkibida nomning asosi vazifasida kelsa, ba‘zilarida yordamchi komponent funksiyasini bajaradi”¹⁴. Yoki dostonlardagi ayrim ismlar islomiy e‘tiqod natijasida yuzaga kelgan. Masalan, “Safar ismi islomiy e‘tiqodlarga ko‘ra nom tanlaash tamoyillari asosida shakllangan nom bo‘lib, ism, asosan, mazkur nom bilan yuritiluvchi oyda tug‘ilgan farzandga qo‘yiladigan nomdir¹⁵”.

Doston tilida ijtimoiy rolni belgilovchi leksik birliklar ko‘pincha konseptual maydonlar bilan bog‘langan: “mardlik”, “sharaf”, “nomus”, “vafa”, “or”, “Ollohning roziligi”, “duo”, “baraka” kabi tushunchalar ijtimoiy axloq me‘yorlarini mustahkamlaydi. Bu birliklar ijtimoiy rolning ma‘naviy konsepsiyasini ifodalaydi, obrazning mohiyatini belgilaydi. Masalan, bahodir obrazida mardlik konsepti etakchi bo‘lsa, ona obrazida himoya, poklik, duo maydonlari faol. Shu sababli dostonlardagi har bir leksik birlik o‘zining ijtimoiy-ma‘naviy konteksti bilan birga keladi.

Dostonlarda ijtimoiy qatlamga oid leksika ko‘p hollarda voqelikni dramatik kuchaytirish vazifasini ham bajaradi. Ayniqsa, ziddiyatlar markazida turuvchi obrazlarning ijtimoiy rolga oid unvonlar voqea rivojini belgilab beradi. Masalan, “xoin navkar”, “adolatli bek”, “vafodor do‘st”, “shijoatli botir”, “mard yigit” kabi birikmalar obrazning jamiyat oldidagi funksiyasini aniq ko‘rsatib, ziddiyatni keskinlashtiradi. Demak, ijtimoiy rolga oid leksika nafaqat semantik, balki kompozitsion vazifa ham bajaradi.

Doston tili tarixiylikni ham ko‘rsatadi, ya‘ni “yov”, “qo‘shin”, “qo‘rg‘on”, “to‘ra”, “beklarbegi”, “dodxoh”, “jarchi”, “dorug‘a”, “mirzaboshi” kabi so‘zlar o‘z davrining siyosiy-administrativ tizimini aks ettiradi. “Xalq dostonlarida uchraydigan podsho, bek, amir,

13 Xorazm dostonlari. Oshiknoma. I-kitob. Urganj, 2006. – 480 b

14 Olloyorov Quvondiq. Xorazm dostonlaridagi nomlarning gendr xususiyatlari. Monografiya. United States of America. 2022. -90 pages.

15 Ko‘rsatilgan manbaa. -b. 28

lashkarboshi kabi nom va unvonlar tasodifiy emas. Ular epos yaratilgan davrning siyosiy-administrativ tuzilishini, boshqaruv tizimi va hokimiyat ierarxiyasini badiiy shaklda aks ettiradi”¹⁶. Bu birliklar tarixiy sotsiolingvistik qatlama mansub bo‘lib, dostonning davriy manzarasini to‘liq shakllantiradi. Shuningdek, turkiy davlatlarga xos lavozimlar – “to‘ra”, “otaliq”, “beklarbegi”, “yobg‘u” kabi unvonlar doston tilida tarixiyatni kuchaytiruvchi samarali vositalardir.

Ijtimoiy rol leksikasining yana bir muhim xususiyati – u ko‘pincha metaforik kengayishlarga ega. Masalan, “el” so‘zi ba‘zan “xalq”, ba‘zan “yurt”, ba‘zan “bir butun jamoa”, ba‘zan esa “ota-bobolar yurti” ma’nosida keladi. Xuddi shuningdek, “botir” so‘zi majoziy ma’noda “qalb botiri”, “so‘z botiri”, “vazmin bahodir” tarzida kengaytiriladi. Bunday metaforik o‘zgarishlar esa dostonning emotsional kuchini oshiradi, obrazlarni ko‘p qirrali qiladi.

Dostonlar tilida ijtimoiy qatlama oid leksik birliklar ko‘p funksionaldir. Ular ijtimoiy tuzilishga ishora qiladi, obrazlarning psixologik portretini belgilaydi, voqea dinamikasini boshqaradi, xalqning tarixiy-ijtimoiy tajribasini kodlaydi, milliy mentalitetni tilning ichki tizimi orqali ifodalaydi. Shuning uchun dostonlardagi bu qatlam lingvokulturologik tahlil uchun eng muhim sohalaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek xalq dostonlari tilida ijtimoiy munosabatlar, urf-odatlar va marosimlarga oid leksika xalqning ma’naviy-madaniy dunyosini tiklashda o‘ta muhim lingvokulturologik qatlam sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki dostonlar faqat badiiy matn emas, balki xalqning ijtimoiy xotirasi, hayot falsafasi, axloqiy me’yorlari, jamiyatning o‘zini anglash modeli sifatida shakllangan. Bu matnlardagi marosim, odat va munosabatlarga oid so‘zlar xalqning kollektiv tafakkuri, qadimiy an’analari, sotsial hayotining ichki qonuniyatlari haqida keng ma’lumot beradi. Doston tilidagi ushbu leksik qatlamning o‘ziga xosligi shundaki, u ko‘pincha badiiy obrazlar va voqealar bilan bog‘liq holda ishlatilsa-da, aslida xalqning real hayotidagi ijtimoiy tartiblarning til orqali kodlanishidir.

Dostonlarda uchraydigan ijtimoiy munosabatlarga oid leksika bir necha yirik semantik guruhlariga bo‘linadi. Jumladan, qarindoshlik munosabatlari, jamoaviy munosabatlar, turmush odoblari, rasm-rusumlar, diniy marosimlar, nikoh va oilaviy marosimlar, mehmondo‘stlik an’analari, tantana va aza odatlari kabi. Har bir guruh o‘zining mustahkam leksik tizimiga ega bo‘lib, dostonlar tilining sotsial manzarasini keng qamrovda yoritadi.

Qarindoshlik munosabatlariga oid leksika. Qarindoshlik munosabatlari dostonlarda eng ko‘p uchraydigan sotsial munosabat qatlamidir. “Ota”, “ona”, “aka”, “opa”, “ini”, “singil”, “xotin”, “er”, “kelin”, “qaynona”, “qaynota”, “amaki”, “tog‘a”, “jiyan”, “nevara”, “avlod”, “nasl”, “urug‘” kabi birliklar nafaqat qarindoshlik nisbatini, balki ijtimoiy rolni ham

16 Саримсоқов Б. Ўзбек халқ эпоси ва тарихий ҳақиқат (монография). Тошкент. Академик нашр. Т.:—Фан, 1999.

bildiradi. Masalan, “ona” so‘zi ko‘pincha ilohiylashtirilgan manoda yaratuvchi, duo qiluvchi, himoya qiluvchi kuch sifatida keladi. Dostonda “*Ka‘bam onam ko‘rishaylik*¹⁷”. “*Aka*” esa himoyachi, boshchilik qiluvchi, jamoaviy mas‘uliyatni zimmasiga oluvchi obraz timsolida ishlatiladi.

Dostonlardagi qarindoshlik leksikasi xalqning oilaviy tizimiga, parvarish, hurmat, sadoqat, vafodorlik kabi qadriyatlariga bevosita bog‘langan. Qarindoshlar o‘rtasidagi munosabatlar dostonlarda nafaqat badiiy vosita, balki jamiyatning ichki axloqiy me‘yorlarini ifoda etuvchi semantik markaz sifatida xizmat qiladi¹⁸.

Turmush odoblari va jamoaviy munosabatlarga oid leksika. Dostonlarda muhim o‘rin egallagan yana bir guruh – bu jamoaviy munosabatlarga doir so‘zlar. “*El*”, “*yurt*”, “*xalq*”, “*mahalla*”, “*qo‘shni*”, “*mehmon*”, “*do‘st*”, “*yor*”, “*pir*”, “*ustoz*”, “*shogird*”, “*birodar*” kabi birliklar xalqning bir-biriga bo‘lgan hurmati, sodiqligi, yordamlashuv an‘analarini aks ettiradi. Bu so‘zlar ko‘pincha sodiqlik, vafodorlik, hamjihatlik, mehr-oqibat, hamkorlik kabi sotsial qadriyatlar bilan birga ishlatiladi.

Mehmondo‘stlik o‘zbek xalq turmush madaniyatining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lgani sababli dostonlarda “*mehmon*”, “*mehmonxona*”, “*mehmon kutmoq*”, “*mehmon qilish*”, “*zo‘r dasturxon*”, “*mehmondorchilik odobi*” kabi birliklar tez-tez uchraydi. Mehmonning kelishi ko‘pincha voqeani harakatga keltiruvchi sabab sifatida ham tasvirlanadi. “*Alqissa uch kundan so‘ng Hurliqo aytdi: bugun bizga Hamro mehmon deb qo‘liga tillo sozni olib..aytdi*”; “*Kim mehmon bo‘lsangiz, bu kulbimizga, G‘animat tutali mehmon topilmas*¹⁹” Bu holat xalqning dunyoqarashida mehmonning qadrlanishi, u orqali baraka kelishi haqidagi qadimiy ishonchlarni tasdiqlaydi.

Nikoh, oila va marosimlarga oid leksika. Dostonlarda eng ko‘p uchraydigan marosimlar – nikoh, sovchilik, to‘y, kelin salom, kuyov salom, oq fotiha, duv-duv to‘y kabi odatlardir. “*To‘y*”, “*sovchi*”, “*kelin*”, “*kuyov*”, “*fotiha*”, “*bo‘y ko‘rmoq*”, “*salom berish*”, “*yuz ochdi*”, “*kelin oshi*”, “*kuyov oshi*”, “*sovg‘a*”, “*sep*”, “*yuz ochdi*”, “*dugona*”, “*qasam*”, “*halollik*”, “*baraka*” kabi birliklar xalqning nikoh madaniyati, oila barqarorligi, jamiyatning axloqiy ko‘rsatkichlari haqida ma‘lumot beradi.

Ayniqsa, “*fotiha*” so‘zi dostonlarda nafaqat marosimiy xarakterga ega, balki ma‘naviy-axloqiy rozilik, oila barakasi, ota-onaning duosi timsoli sifatida ishlatiladi. “*Barcha kelib, duoi xayr qildilar, fotiha o‘qib, muborakbod qildilar*”, “*Oq fotiha berib: “Yo‘lingizni haq ochsin!”*”²⁰. “*Sovchi*” esa oila qurish jarayonidagi muhim vositachi, jamiyatda muayyan

17 Хоразм дostonлари. Гўрўғли. Хоразм: Урганч, 2004. – Б. 6

18 Мелетинский Е. М. Происхождение героического эпоса. Ранние формы и архаические памятники. М.: Наука, 1963. 462 с.

19 Хоразм дostonлари. Гўрўғли. Хоразм: Урганч, 2004. – Б. 112-125

20 Ko‘rsatilgan manbaa. –Б. 183

hurmatga sazovor obrazdir. Nikoh marosimiga oid bu leksik qatlam dostonlar tilida ko‘pincha quvonch, shodlik, to‘kinlik, baraka kabi pozitiv semantik maydon bilan uyg‘unlashadi²¹. Dostonda “...Ana qizingiz Gulruxsor pariga sovchi bo‘lib keldik²²” kabi jumlar ko‘p uchraydi.

Aza va motam marosimlariga oid leksika. Dostonlarda *motam, qora kiyim, dod-faryod, fotiha, xotira, yod etmoq, marsiya, qalb dardi* kabi so‘zlar xalqning aza tutish an‘analari, yo‘qotishga bo‘lgan munosabati, motam rusmlarini aks ettiradi. Aza marosimlari dostonlarda badiiy drammatizmni kuchaytirish uchun muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, qahramonning yaqinini yo‘qotishi, elning dod-solishi, motam tutishi – jamiyat mavjudligining eng og‘ir sinovi sifatida talqin etiladi.

Bu marosimlar dostonlarning emotsional kuchini oshiradi, obrazning ruhiy kechinmalarini chuqurlashtiradi. Ana shunday marosimiy leksika orqali xalqning motam madaniyati, qayg‘uni engish usullari, jamiyatning ruhiy birdamligi til orqali ifodalanadi.

Diniy marosimlarga oid leksika. Dostonlarda diniy marosimlar bilan bog‘liq *xatmi Qur‘on, namoz, duo, fotiha, qurbon, nazr, otiq, so‘yish marosimi, pirga borish, ziyorat, taqdir, tavoze’, sajda, musulmon odati* kabi birliklar ham muhim o‘rinni egallaydi. Bu leksika xalqning diniy dunyoqarashi, e‘tiqod tizimi, taqdirga ishonish, duo va fotiha orqali ruhiy madad izlash kabi qadriyatlarini aks ettiradi. Diniy marosimlarning til orqali ifodalanishi dostonlarda ko‘pincha voqealarning burilish nuqtalarida uchraydi. qahramonning yo‘lga chiqishi oldidan duo olish, jang oldidan fotiha qilish, to‘ylar oldidan nazr berish kabilar ana shunday misollardandir. “*Peshin namoz vaqtida Arab Rayxondi eshigini qoqdi*”(129-bet), “*Dong otib erta namoz o‘qilayotgan vaqtda...*”(186-bet), “*Qurboning bo‘layin sening*”(25-bet), “*...avliyog‘a nazr qilmoq*”(153-bet), “*Pirlardan madad so‘ramoq*”, “*Hakim otani ziyorat qilib, zor-zor yig‘lba xatmi qur‘on qildilar*”²³ kabi misralar davr ruhini aks ettirishga dalildir. Diniy leksikaning estetik funksiyasi ham mavjud. Masalan, “*duo*” so‘zi ba‘zan metaforik ma’noda – “*ona duosi*”, “*ustoz duosi*”, “*xalq duosi*” tarzida kelib, obrazning ruhiy qudratini belgilaydi. Bundan tashqari “ziyosat” so‘zi ham diniy va dunyoviy ma’nolarda aks etgan(yuqoridagi misollarda aks etgan)

Rasm-rusum va urf-odatlariga oid leksika. O‘zbek xalq dostonlari xalqning turmush marosimlari, odatlari, rasm-rusumlariga oid juda keng leksik maydonga ega; *nikoh qiydirmoq, dorboz, to‘y, duv-duv to‘y, to‘n kiydirish, suyunchi, qutlov, duolar, beshik to‘yi, chilla, bog‘ sayli, qovun sayli, tog‘ sayli* kabi.

21 Мелетинский Е. М. Поэтика мифа. – Москва: Наука. 2006. – Б. 406.

22 Хоразм дostonлари. Ошикнома. Араб Танған. Хоразм: Урганч, 2004. – Б. 102

23 Хоразм дostonлари. Гўрўғли. Хоразм: Урганч, 2004. – Б. 480

Har bir rasm-rusumning o‘zining ma’naviy, iqtisodiy va estetik qiymati bor. Masalan, “*suyunchi*” – quvonchli xabar etkazilganida beriladigan sovg‘a; “*to‘n kiydirish*” – hurmat-ifodaning rasmiy marosimi; “*duv-duv to‘y*” – keng jamoa bilan o‘tkaziladigan tantana. Ushbu leksik qatlam xalqning turmush madaniyati, jamiyat ichidagi odob me‘yorlarini yorqin aks ettiradi.

Ijtimoiy munosabatlar tizimini ifodalovchi so‘zlar. Dostonlarda *sharaf, nomus, or, hayot yo‘li, vazifa, mas‘uliyat, vafodorlik, do‘stlik, sadoqat, hurmat, ehtirom, iltijo, o‘tinch, iltimos, minnatdorlik, so‘z, va‘da, qasam, halollik, uquv, burch, vijdon, adolat, insofilik, muruvvat, saxovat, mardlik, jasorat, matonat, sabr, bardosh, shijoat, g‘urur, iftixor, kamtarlik, donolik, mehr-oqibat, rahm-shafqat, himmat, fidoyilik, hamjihatlik, birlik, hamdardlik, sadoqatlilik, poklik, ishonch, shukronalik, bag‘rikenglik, oqibat* kabi birliklar jamiyatning axloqiy-ijtimoiy qadriyatlari bilan bog‘langan. Bu so‘zlar obrazning ma’naviy portretini belgilaydi va jamiyatning ichki ruhiy tartibini aks ettiradi.

Ayniqsa, “*nomus*” va “*or*” kabi birliklar o‘zbek dostonlarida jamiyatning axloqiy me‘yorlarini eng qat’iy belgilovchi markaziy kategoriyalar sifatida keladi. Bu so‘zlar ko‘pincha qahramonning harakatlarini belgilovchi axloqiy tamoyillarni ifodalaydi. Masalan, bahodirning jangga chiqish sababi ko‘pincha “*nomus*” yoki “*yurt shavkati*” bilan izohlanadi.

Tantana va bayramlar leksikasi. Dostonlarda bayram va tantanalarga oid *sayil, o‘yinlar, sozanda-go‘yanda, askiyachi, qo‘shiqchi, navo, masxaraboz, hashar, oqshom ziyofati, bazm, to‘y, musiqa, tomosha, raqs, lapar, aytishuv, doston aytish, baxshi, qarsak, karnay-surnay, bolomon, nog‘ora, doira, dutor, tanbur, rubob, kuy, ashula* kabi birliklar xalqning quvonch madaniyatini ko‘rsatadi. Bayram leksikasi ko‘pincha dostonning iliq, quvnoq ruhini yaratishga xizmat qiladi.

Marosimiy anjomlar va atributlarga oid leksika. Marosimlar va odatlarning ajralmas qismi bo‘lgan anjomlar ham doston tili orqali boy tasvirlangan: *qozon, supurgi, chiroq, tilla taqinchoqlar, o‘ramalar, fotiha noni, qatlama tandir, ko‘rpacha, duo, marosim chodiri, oq ot, oq dasturxon, lagan, patnis, kosa-piyola, qandil, sham, qand-qurs, sarpo, sep sandig‘i, beshik, belbog‘, ro‘mol, chopon, to‘n, kamar, kelin libosi, to‘y dasturxoni, sochiq, gilam, kigiz, palos, yosti, ko‘rpa* bundan tashqari Xorazmda *qayroq, ko‘shagana, cho‘girma, lachak, taxya, qo‘shoq, mahsi, ro‘pak, po‘ta, pachak qand, qiyiq* kabi birliklar xalq marosimchiligining moddiy-madaniy qiyofasini ko‘rsatadi. Bu anjomlar ko‘pincha marosimning ma’naviy mazmunini ochishda asosiy badiiy vosita sifatida ishlatiladi.

XULOSA. Dostonlarda ijtimoiy munosabat, urf-odat va marosimlarga oid leksik qatlam xalqning ma’naviy dunyosini, hayot falsafasini, jamiyatning ichki qadriyat tizimini, marosimchilik madaniyatini, ijtimoiy tartib va odob-axloq me‘yorlarini til orqali ochib beradi. Bu leksik qatlam doston matnining sotsial asosini tashkil qiladi va xalqning qadimiy ijtimoiy

tuzumi, ruhiy olami, axloqiy konsepsiyalarini tarixiy-lingvistik jihatdan tiklash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мирзаев Турсунали. Ўзбек халқ дostonлари поэтикаси. Монография. Тошкент: Ўқитувчи, 1993.
2. Пропп В. Я. Исторические корни волшебной сказки. Москва, 2023.
3. Путилов Б.Н. Героический эпос и действительность. Л.: Наука, 1988. С. 329.
4. Саримсоқов Б. Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. Тошкент, 2006. Б -235.
5. Хоразм дostonлари. Ошиқнома. 1-китоб. Урганч, 2006. – 480 б
6. Olloyorov Quvondiq. Xorazm dostonlaridagi nomlarning gendr xususiyatlari. Monografiya. United States of America. 2022. -90 pages.
7. Хоразм дostonлари. Гўрўғли. Хоразм: Урганч, 2004. – Б. 112-125
8. Мелетинский Е. М. Поэтика мифа. – Москва: Наука. 2006. – Б. 406.
9. Хоразм дostonлари. Ошиқнома. Араб Танған. Хоразм: Урганч, 2004. – Б. 102